



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 172-180 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHDA AGRO OZIQ-OVQAT BOZORI INFRATUZILMASINING RIVOJLANISH OMILLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI



Matjonov Bekjon Ravshonbekovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti v.b. (PhD)

Ibragimova Nodira Kadamovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda agro oziq-ovqat bozorining o'рни va ahamiyati tadqiq etilgan. Oziq-ovqat bozori infratuzilmasining tarkibiy elementlari, ulgurji savdo tizimi, logistika markazlari, axborot-maslahat xizmatlari hamda marketing yondashuvlarining samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, talabni prognozlash bosqichlari, davlatning tartibga soluvchi roli va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, oziq-ovqat bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilish va logistik tizimlarni rivojlantirish aholi farovonligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: agro oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat xavfsizligi, bozor infratuzilmasi, ulgurji savdo, logistika, marketing, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В статье исследуется роль и значение агропродовольственного рынка в обеспечении населения сельскохозяйственной продукцией. Проанализированы элементы инфраструктуры продовольственного рынка, система оптовой торговли, логистические центры, информационно-маркетинговые механизмы. Обоснованы этапы прогнозирования спроса, регулирующая роль государства и механизмы повышения конкурентоспособности продукции. Сделан вывод о том, что модернизация инфраструктуры продовольственного рынка и развитие логистических систем являются ключевыми условиями обеспечения продовольственной безопасности и повышения благосостояния населения.

Ключевые слова: агропродовольственный рынок, продовольственная безопасность, инфраструктура рынка, оптовая торговля, логистика, маркетинг, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the role and significance of the agro-food market in ensuring the stable supply of agricultural products to the population. The structural elements of food market infrastructure, wholesale trade systems, logistics centers, and marketing mechanisms are analyzed. The stages of demand forecasting, the regulatory role of the state, and mechanisms for increasing product competitiveness are substantiated. The study concludes that modernization of food market infrastructure and development of logistics systems are essential conditions for ensuring food security and improving public welfare.

Keywords: *agro-food market, food security, market infrastructure, wholesale trade, logistics, marketing, competitiveness.*

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat bozori ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi muhim institut sifatida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari, tashqi bozorlardagi narxlar beqarorligi va logistika zanjirlaridagi uzilishlar sharoitida agro oziq-ovqat bozorining samarali infratuzilmasini shakllantirish dolzarb masalaga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samarali realizatsiya qilish va yagona axborot bazasini yaratish zarurligini alohida ta'kidlab, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanini qayd etgan [1]. Shuningdek, Prezidentning 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmonida qishloq xo'jaligini 2020-2030-yillarda rivojlantirish strategiyasining asosiy maqsadlari sifatida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish va zamonaviy logistika tizimini joriy etish belgilangan [2].

Shu nuqtai nazardan, agro oziq-ovqat bozorining infratuzilmasini takomillashtirish, talabni prognozlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tizimi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni optimallashtirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agro oziq-ovqat bozori va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, M.Porter o'zining raqobat ustunligi nazariyasida tarmoq raqobatbardoshligini ta'minlashda infratuzilma, logistika va davlat siyosatining o'zaro uyg'unligini asoslab bergan [3]. Uning fikriga ko'ra, mahsulotni ishlab chiqarishdan iste'molchigacha yetkazish zanjirining samarali tashkil etilishi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Marketing nazariyasi asoschisi P.Kotler agro oziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilishda bozor kon'yunkturasini chuqur o'rganish, talab segmentatsiyasi va iste'molchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [4]. Uning konsepsiyasiga ko'ra, marketing yondashuv oziq-ovqat bozori ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirishning muhim vositasidir.

Xalqaro tashkilotlar, xususan FAO hisobotlarida oziq-ovqat xavfsizligi to'rtta asosiy mezon – mavjudlik, foydalanish imkoniyati, barqarorlik va sifat ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Ushbu yondashuv agro oziq-ovqat bozorining infratuzilmasini kompleks rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi [5].

MDH olimlaridan D.V.Zerkalov oziq-ovqat xavfsizligini iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida baholab, davlatning tartibga soluvchi rolini kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi [6]. L.S. Revenko esa global oziq-ovqat savdosi va logistika tizimlarining

samaradorligini tahlil qilib, taqsimot zanjirining uzluksiz ishlashi ichki bozor barqarorligining muhim omili ekanini asoslaydi [7].

O'zbekistonlik olimlar Sh.Shodmonov va H.P.Abulqosimov o'z tadqiqotlarida agrar siyosat va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim institutsional omili ekanini qayd etganlar. Ularning fikricha, agro oziq-ovqat bozorining samarali ishlashi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuviga bevosita bog'liq [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotdat izimli yondashuv doirasida bozor infratuzilmasining tarkibiy elementlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va taklif dinamikasi, bozor sig'imi hamda mahsulot aylanmasi ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Talabni prognozlashda vaqt qatorlari tahlili, trend modellar va regressiya yondashuvlaridan foydalanish tavsiya etildi. Ushbu metodlar bozor kon'yunkturasini baholash va kelgusi davr uchun prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli orqali rivojlangan davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston agro oziq-ovqat bozori infratuzilmasining rivojlanish darajasi solishtirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xom – ashyo va oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunda barcha bozor ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kanallarini shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. XX asr boshlaridan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kanallari, ya'ni, bozorlar tartibga solingan va solinmagan bozorlarga bo'lingan. Keyinchalik, XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab barcha rivojlangan mamlakatlarda bozorlar to'liq tartibga solindi va nazorat qilindi. Lekin, hozirgi kunda, bir qator davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham haligacha tartibga solinmagan bozorlar mavjud. Tartibga solingan bozorlar faoliyati ham har doim shaffof, qonuniy va samarali emas. 2007-yil sentabr oyida Pekinda bo'lib o'tgan Butunjahon ulgurji bozorlar ittifoqining XXII kongressida ta'kidlanganidek, ushbu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan ko'plab mamlakatlarda tovarlarning 10 foizi tartibga solinmagan bozorlar yoki vositachilar orqali realizatsiya qilinadi. Bu ularning hisob-kitoblariga ko'ra juda katta savdo hajmi hisoblanadi.

Oziq-ovqat bozorida iqtisodiy munosabatlarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari bilan ulgurji va chakana savdo korxonalarini o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida ko'rish mumkin. Shu bilan birga iqtisodiy munosabatlarning asosini mehnatni oqilona taqsimlash, tomonlarning mustaqilligi va javobgorligi, mulkiy huquqlarni himoya qilish hamda moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanish tamoyillari asosida tuzilgan iqtisodiy bitimlar tashkil etadi.

Har qanday bozor tizimida aholi talabini qondirish inqirozni oldini olishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shuning uchun aholi talabini prognozlash oziq-ovqat bozorida samarali iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Qishloq


xo'jaligi mahsulotlarini sotish kanallarini shakllantirish, oziq-ovqat bozorini rivojlantirish va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammolarini bozor mustaqil ravishda hal qila olmaydi. Bu jarayondagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlat yordamisiz amalga oshirib bo'lmaydi.



1-rasm. Agro oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor yo'nalishlari [10].

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlardagi iqtisodiy munosabatlar tartibga solinadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi bozori ishtirokchilari bilan agrosanoat kompleksidagi ulgurji va chakana savdo korxonalarini o'rtasidagi xo'jalik va iqtisodiy aloqalar, afsuski, mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini hisobga olmasdan, stixiyali shakllanmoqda. Hozirgi kunda bozor ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning eng samarali yo'li mahsulotlarni logistika markazlarda ulgurji vositachilar orqali yetkazib berishdir.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va ulgurji, chakana savdo sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunday aloqalarning shakllanishi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, jamiyatda barqarorlikni saqlashning zarur shartidir. Oziq-ovqat bozori ham iqtisodiyot kabi inqiroz, rivojlanish, barqarorlik, tiklanish jarayonlari bo'lib o'tadi. Shunga qarab davlat oziq-ovqat bozori ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish jarayoniga davlat aralashuvini oshiradi yoki kamaytiradi.



2-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabni prognozlash algoritmi [10].

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rejalashtirish va ma'lum turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida, sanoatni rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasini ishlab chiqish va oziq-ovqat bozorini tartibga solishdagi dasturiy chora – tadbirlarni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Oziq-ovqat bozoridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni prognozlash quyidagi to'rt bosqichni o'z ichiga oladi (2-rasm).

Birinchi bosqichda talab va taklifning haqiqiy, prognoz ko'rsatkichlari yordamida bozor sig'imini aniqlash, shuningdek, dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash amalga oshiriladi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish va sotishning tartibsiz shakllari keng qo'llanilishi tufayli statistika ma'lumotlarining ishonchsizligi ortib bormoqda. Shu sababli, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni prognozlashda qishloq xo'jaligi korxonalarining tovar aylanmasi to'g'risida shaffof axborot tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqichda oziq-ovqat bozori rivojlanishining umumiy yo'nalishlari va tendensiyalarini aniqlash uchun talab va taklifning gipotezasi ishlab chiqiladi. Gipotezani ishlab chiqishda aholi daromadlarining o'sishi, davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, oziq-ovqat bozori infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi.

Uchinchi bosqichda talab va taklif rivojlanishining asosiy tendensiyalarini tashkil etuvchi omillar va shart – sharoitlarni xolis baholash asosida kelajak uchun talab va taklifning prognozlarini hisoblash tavsiya etiladi. Talab prognozlarini hisoblashda talab darajasi va dinamikasini shakllantiruvchi eng muhim omillarning dastlabki

prognozlariga asoslanish kerak. Masalan, oila sonining o'sishi va ularning asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish prognozi va boshqalar.

To'rtinchi bosqichda hisoblangan prognozlarning ehtimollik darajasi baholanadi va olingan prognozlarni tuzatish bo'yicha chora – tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi.

Oziq-ovqat bozori infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi chora – tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ❖ Zamonaviy axborot ta'minoti tizimlarini, jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining savdosining elektron tizimini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- ❖ Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida taqsimlash tizimi ishtirokchilari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- ❖ Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish tizimidagi xarajatlarni kamaytirish maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilar va ulgurji sotuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishni ta'minlash;
- ❖ Oziq-ovqat fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xarajatlarini minimallashtirish uchun logistika tizimlaridan keng foydalanish;
- ❖ Yangi turdagi mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish imkonini beruvchi yarmarka va ko'rgazma faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- ❖ Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati korxonalarining ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish hajmini kengaytirishga qaratilgan marketing faoliyatini rivojlantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, agro oziq-ovqat bozori aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda hal qiluvchi iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Oziq-ovqat bozori infratuzilmasining rivojlanish darajasi ishlab chiqaruvchilar, ulgurji va chakana savdo subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning samaradorligini belgilaydi. Tizimli tahlillar natijasida aniqlanishicha, mahsulotni ishlab chiqarishdan iste'molchigacha yetkazish zanjirida ortiqcha vositachilik, saqlash va logistika tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi mahsulot tannarxining oshishiga va ichki bozorda narxlarning beqarorlashuviga olib kelmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni prognozlash mexanizmlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi ishlab chiqarish hajmlarining bozor ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ayrim mahsulotlar bo'yicha ortiqcha taklif yoki taqchillik holatlarini yuzaga keltiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, logistika markazlarini rivojlantirish va ulgurji savdo tizimini institutsional takomillashtirish oziq-ovqat bozori barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biridir.

Agro oziq-ovqat bozori infratuzilmasini rivojlantirish orqali aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashni takomillashtirish maqsadida hududiy logistika markazlari, zamonaviy saqlash va sovetish quvvatlarini kengaytirish, ulgurji savdo tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash hamda ishlab chiqaruvchi va chakana savdo subyektlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnomaviy munosabatlarni kengaytirish zarur; qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni prognozlashning ekonometrik va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish hajmlarini bozor kon'yunkturasiga moslashtirish imkonini beradi; yagona elektron axborot platformasini

yaratish bozor shaffofligini oshirib, vositachilik zanjirini qisqartirishga xizmat qiladi; shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish uchun marketing qo'llab-quvvatlash, sertifikatlash va eksportni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish hamda davlat tomonidan moliyaviy-iqtisodiy rag'batlantirish choralarini optimallashtirish oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashning muhim institutsional sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2017-yil 22-dekabr. <https://lex.uz/uz/docs/-6371092>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida"gi PF–5853-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>
3. Porter M. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
4. Kotler P. Marketing Management. – Pearson Education, 2016.
5. FAO. The State of Food Security and Nutrition in the World. – Rome, 2022.
6. Zerkalov D.V. Prodovolstvennaya bezopasnost. – Moskva, 2010.
7. Revenko L.S. Global Food Security and Trade Regulation. – Moskva, 2015.
8. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiy xavfsizlik asoslari. – Toshkent, 2018.
9. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy siyosati va agrar islohotlar. – Toshkent, 2017.
10. Matjonov B.R. Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoref. dis. iqt. fan. fal. dok. – N., 2025. – 22 b.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

